

Bahaybat tog'lar va mayda zarrali qumlar aslida qanday paydo bo'lgan deb o'ylaysiz? Bilasizmi, tog' jinslari havo harorati, shamol va suv ta'sirida qulab, katta-katta bo'laklarga, bo'laklar esa mayda bo'lakchalarga ajralgan va shundan qum paydo bo'lgan. Qumning rangi uning qaysi tog' jinsidan tashkil topganiga bog'liq. Tabiatda oq, sariq, qizil, pushti, qora rangli qumlar bor.



Tog'lar qanday paydo bo'lgan?

Bir kuni Sherzod dadasi bilan tog'ga boribdi.

– Voybo'! Buncha yuksak bo'lmasa bu tog'lar! – deb hayratlanibdi Sherzod va: – Dada, ularni kim yasagan? – deb so'rabdi dadasidan.

– Ular vulqonlardan paydo bo'lgan, – deb javob beribdi unga dadasi. – Biz turgan joyimiz yerning qattiq yuzidir, uning tagida esa suyuqlik bor. U judayam qaynoq. Ba'zan bu suyuqlik yer yuzasiga chiqadi, ba'zan esa yo'q. U tashqariga yer qatlamini ko'tarib otilib chiqadi.

– Ana shu vulqon deb ataladimi?

– Ha, ana shu vulqon deyiladi. Ko'plab vulqonlar o'chdi. Lekin tog'lar qoldi. Vulqondan juda ko'p miqdorda



lava va kul otilib chiqishi natijasida hosil bo'lgan tog'lar bor. Yer qatlami siljib burmalar hosil bo'lishi natijasida paydo bo'lgan tog'lar ham bor. Shuningdek, yer qatlamining yorilishi tufayli ham tog'lar paydo bo'ladi.

– Ajabo! – debdi Sherzod hayratlanib. – Yer usti qattiq ko'ringani bilan u siljishi, ko'tarilishi va yorilishi ham mumkin ekan-da!

– Endi tog'lar qanday paydo bo'lganini tushundingmi? – so'radi undan dadasi.

– Ha, mana endi tushundim, – deb javob berdi Sherzod.



Qum qayerdan paydo bo'lgan?

Yozda Valining dadasi uni dengizga olib boribdi. Salqin shabada, ajoyib to'lqinlar, issiqqina qum, bundan ortiq yana nima kerak?

U yerda Vali qumdan minoralar yasabdi, ko'llar qazibdi, issiqqina qumda yumalabdi, rohatbaxsh suvda cho'milibdi, xullas maza qilib dam olibdi.

– Dada, qum qayerdan paydo bo'lgan? – deb so'rabdi u dadasidan.

– Qadim-qadimda yer yuzida hech qanday qum bo'lmagan, faqat qoyalar, tog' jinslari va otilib chiqayotgan vulqonlar bo'lgan, xolos. Keyin suv, havo va qum paydo bo'lgan. Suv va shamol tog'larni buzib yiqitgan. Natijada tog' bo'laklarga bo'linib ketgan. Bora-bora bu bo'laklar qumdek maydalanib ketgan. Qumlar dengizlar ostiga borib qolgan.

- Sahrolardagi qum qayerdan kelgan?
- U yerga qumni shamol olib borgan. Ko'pgina sahrolar o'rnida esa ilgari dengiz va okeanlar bo'lgan. Ha, aytganday, qumlar yana har xil rangli bo'ladi. Bu qumning qaysi tog' jinsi bo'laklaridan paydo bo'lganiga bog'liq. Pushti, oq rangdagi qumlar bor. O'rtayer dengizi qirg'oqlari Sahara sahrosining sariq rangdagi qumlari bilan qoplangan. Bu qumlar sariq chaqmoqtoshdan tashkil topgan. Taiti plyajining qora rangli qumi esa vulqon lavasi natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham u qora rangda.
- Qoyil! Demak, qum tog' bo'laklari ekan-da?!

("Bolalar ensiklopediyasi ertaklarda" kitobidan)



1. Sherzod bilan Vali qayerga sayohatga borishdi?
2. Ular sayohat davomida qanday ma'lumotga ega bo'lishdi?
3. Bolalarga qanday ta'rif berish mumkin?
4. Ayting-chi, bolalarni qiziqtirgan savollarga yana qayerdan javob topish mumkin?
5. Odamlarning sayohatga chiqishidan qanday maqsadi bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?
6. Siz sayohatga chiqqaningizda yana nimalarni bilishni istardingiz? Fikringizni izohlang.



1. Hikoyalarni rollarga bo'lib o'qing.
2. Joy nomlari berilgan gaplarni topib o'qing.



jins – Yer qobig'ining ma'lum qatlamini hosil qilgan mineral

Taiti – orol nomi



Tog' va qumning paydo bo'lish jarayoni haqida qisqacha taqdimot tayyorlang.



Topishmoqning javobini toping.

Tebranadi, joni yo'q.



Hikoyani o'qing. Hikoya asosida reja tuzib, mazmunini gapirib bering.